

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

# O'ZBEKISTON

2023 Vol. 4

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON:**

**TIL VA MADANIYAT**

# **UZBEKISTAN:**

**LANGUAGE AND CULTURE**

**2023 Vol. 4**

**[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Nodir Jo'raqo'ziyev

**Mas'ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### **Tahrir kengashi**

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odiraxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

### **Tahrir hay'ati**

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetha Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy Editor in Chief:** Nodir Jurakuziev

**Executive secretary:** Ozoda Tajibaeva

### **Editorial board**

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva

### **Editorial Committee**

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### **Muhittin Gümüş**

Türkiye Türkçesi ve Özbekçe söz Varlığında Göz Kelimesiyle  
Oluşan Deyimler ve Birleşik Kelimeler.....6

#### **Jo'ra Xudoyberdiyev**

Birinchi turkologiya qurultoyi va plenumida turkiy tillardagi  
singarmonizm muhokamasi.....26

#### **Dilafruz Xudoyqulova**

Ingliz va o'zbek tillaridagi farmatsevtika terminlarini kognitiv-  
semantik aspektda tadqiq etish.....70

#### **Sanjar Mavlyanov**

O'zbek tili diplomatik terminlarining semantik tasnifi.....83

### Adabiyotshunoslik

#### **Узоқ Жўрақулов, Мақпал Оразбек**

Әдебиеттегі «көлеңке» архетипі (Абай мен Оскар Уайльд  
шығармаларындағы «жан» мен «көлеңке» табиғаты).....102

#### **Hasan Bekiroğlu**

Nazar Eşankul'un "İstila" Hikâyesi'ndeki Halk Kültürü  
Unsurları İncelenmesi.....113

#### **Orzigul Hamroyeva**

Fitratning aruz va milliy she'r tizimi xususidagi mulohazalari.....130

### Fan. Ta'lim. Metodika

#### **Gulnara Iskandarova**

Oliy ta'limda sifat va malakaga asoslangan baholash.....142

## CONTENT

### Linguistics

#### **Muhittin Gumush**

Idioms and Compound Words Formed with the Word Eye in  
Turkey Turkish and Uzbek Vocabulary.....6

#### **Jura Khudoyberdiev**

Discussion of Synharmonism in Turkic Languages at the First  
Turkology Congress.....25

#### **Dilafruz Khudoykulova**

The topicality of the research of pharmaceutical terms in English  
and Uzbek in cognitive-semantic aspects.....70

#### **Sanjar Mavlyanov**

Semantic Classification of Uzbek Diplomatic Terms.....83

### Literature

#### **Uzok Jorakulov, Makpal Orazbek**

Archetype of "shadow" in literature (The nature of "soul" and  
"shadow" in the works of Abai and Oscar Wilde).....102

#### **Hasan Bekiroglu**

Investigation Of Folk Culture Features In Nazar Eşankul's  
"Investment" Story.....113

#### **Orzigul Hamroeva**

Fitrat's comments on Aruz and national poetry system.....130

### Science. Education. Methodology

#### **Gulnara Iskandarova**

Quality and Skill-based Assessment in Higher Education .....142

## O'zbek tili diplomatik terminlarining semantik tasnifi

Sanjar Mavlyanov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida erishilgan natijalarni yanada to'ldirish, takomillashtirish maqsadida o'zbek tili diplomatik terminlarining semantik tasniflari yoritilgan. Diplomatik terminlarning mazmunini anglash, ularning semantik maydonini yetarlicha baholay olish, diplomatik faoliyat jarayonida ulardan o'z o'rnida foydalanish diplomatik ishlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jahon diplomatiyasi til birliklaridan kelib chiqib o'zbek diplomatik terminlarining izohli lug'atlarini shakllantirish, ulardan foydalangan holda semantik tasniflarini takomillashtirilgan tartibda ishlab chiqishimiz diplomatiyada qo'llanuvchi har bir terminning semantik doirasini aniq belgilashga, mazmun ko'lamini yetarlicha anglashga zamin yaratishi hamda diplomatlarning samarali ish faoliyatida muhim rol o'ynayishi tahlilga tortilgan. Ushbu maqolada o'zbek tili diplomatik terminlarning mazmun-mundarijasiga ko'ra 16 turdagi semantik tasniflari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *diplomatik termin, leksema, semantik tasnif, diplomatiya tili, diplomatik nutq.*

### Kirish

Dunyoda mamlakatlar paydo bo'lib, rivojlanib, jahon xaritasida o'z o'rniga ega bo'lib borar ekan, bu jarayonda o'lkaning ichki masalalarini yechish bilan birga tashqi muammolarni ham birdek hal etib borishi zarur. Ichki munosabatlarda davlat va jamiyat, davlat va shaxs, ular bilan bog'liq qator masalalar bartaraf etiladigan bo'lsa, qo'shni mamlakatlar bilan har tomonlama hamkorlik qilish, jahonning boshqa mintaqa davlatlari bilan turli jabhalarda kelishuvlarga erishish, ayniqsa, hozirgi sivilizatsiya, globallashuv davrida har qanday mamlakat bilan hayotning qaysidir jabhasida davlatlararo munosabatlarga kirishish, ma'lum bir respublikaning kelajakdagi rivojiga katta ta'sir o'tkazmoqda. Bu

---

<sup>1</sup>Mavlyanov Sanjar Djambulovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** movlanovsanjar13@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-4705-7165

**Iqtibos uchun:** Mavlyanov, S.D. 2023. "O'zbek tili diplomatik terminlarining semantik tasnifi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 83 – 101.

jarayonlarda esa diplomatik aloqalarning rivojlanganligi, davlatning tashqi siyosatdagi pozitsiyasi, tashqi ishlarni menejerizatsiya qilishdagi faolligi, tashqi aloqalarni o'rnatishdagi mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoda ilk mamlakatlarning shakllanishidan boshlab hozirgi kun davlatlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish faol diplomatiyani tashkil etib kelgan. Har bir davrning xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yishni taqozo etuvchi masalalari bo'lib kelgan. Ammo bugungi kunga kelib bunday masalalar oldingi davr muammolaridan bir necha karra ko'paydi va bu xalqaro munosabatlarning faol tashkillashtirilishini talab qilmoqda. Bugungi diplomatik munosabatlar xalqaro aloqada o'ta ehtiyotkorlik, ziyraklik, sinchikovlik, ishbilarmonlik, e'tiborlilik va hushyorlikni talab qilmoqda. Ayniqsa, davlat tashqi siyosatida faoliyat yurituvchi diplomatlar qayd etilgan jihatlarni o'zida mujassamlashtira bilishi zarur. Bunda esa avvalambor tildan foydalanish, diplomatiyada qanday til imkoniyatlarini nutqda voqelantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda diplomat bir necha tilni bilishi, o'z ona tili va tashqi aloqalarda qo'llovchi til imkoniyatlarini yetarlicha his eta olishi, asosiysi esa diplomatik faoliyatda keng qo'llanuvchi til birliklarining semantik mohiyatini to'la anglab yetishi zarur. Jahon tilshunosligida diplomatiya tili, diplomatik nutq, diplomatik terminlar va ularning mazmun-mundarijasini yoritishga qaratilgan tadqiqotlar yetarlicha. Jahon tilshunosligidagi diplomatiya tiliga oid, diplomatik terminologiyaga bag'ishlangan izlanishlarda keltirilgan diplomatiya terminlarining mavzu tasnifini quyidagi guruhlarga birlashtirishimiz mumkin:

1. Diplomatik hujjatlarning nomi: *ishonch yorlig'i*, *og'zaki nota*, *shaxsiy eslatma*, *memorandum* va boshqalar. Ushbu terminlarning ma'noviy jihatiga e'tibor qaratamiz:

*Ishonch yorlig'i* ma'lum bir "shaxsning muayyan davlat lavozimida diplomatik vakil etib tayinlanganligini tasdiqlovchi hukumat hujjati" [Громыко 1984, 145].

*Shaxsiy eslatma* xat shaklidagi "diplomatik yozishmalar hujjati" [Громыко 1984, 209].

*Memorandum* har qanday masala bo'yicha "hukumatning nuqtayi nazarini ifodalovchi diplomatik hujjat" [Громыко 1984, 222].

2. Diplomatik faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslarning nomlari: *diplomatik agent*, *elchi*, *attashe*, *konsul* va boshqalar.

*Diplomatik agent* hozirgi xalqaro amaliyotda "davlatning

diplomatik vakillari (elchilar, vakillar, muvaqqat ishlar vakili) hamda elchixonalar va vakolatxonalar diplomatik xodimlarining umumiy nomi sifatida qo'llaniladi" [Громыко 1984, 327].

*Elchi* 1961-yilgi "Diplomatik munosabatlar to'g'risida"gi Vena konvensiyasida mustahkamlangan, qabul qilingan va zamonaviy xalqaro tasniflash huquqiga muvofiq, 1-darajali diplomatik missiya rahbari; "davlat rahbari huzurida akkreditatsiyadan o'tkazilgan shaxs".

*Attashe* "diplomatik xodimning lavozimi" yoki unvoni.

3. Xalqaro huquq sohasidagi harakatlarning nomlari: *xalqaro yig'ilish o'tkazish, dalillar keltirish, qurollarni cheklash va qisqartirish, rasmiy shaxslar tashrifi*.

4. Harbiy harakatlar yoki jangovar harakatlar xavfi bilan bog'liq voqeliklarning nomlari:

*Harbiy ishg'ol* (lot. *Occupatio*) "bir davlat qurolli kuchlari tomonidan boshqa davlat hududini (yoki uning bir qismini) vaqtincha bosib olish va bosib olingan hududda harbiy boshqaruv hokimiyatining o'rnatilishi" [Громыко 1984, 298]. Bu qonuniy yoki noqonuniy bo'lishi mumkin. Harbiy ishg'ol doim ham bosib olingan hudud ustidan suverenitetni bosib oluvchi davlatga o'tkazishga olib kelmaydi.

*Agressiya qilmaslik* – quoldan foydalanmaslik. Yuqori qurolli kuchlarga ega davlatning boshqa mamlakatga qarshi birinchi bo'lib qurol qo'llamasligi. Xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biri "xalqaro munosabatlarda kuch ishlatmaslik tamoyilidir".

*Harbiy jinoyatchilar* urush jinoyatlarini sodir etganlikda, ya'ni "urush qonunlari va odatlarini buzganlikda aybdor deb topilgan shaxslardir". Bugungi kundagi xalqaro huquq jinoiy javobgarlik tamoyilini tan oladi.

5. Davlat mustaqilligi bilan bog'liq voqeliklarning nomlari:

*Davlat hududi* "ma'lum bir davlat chegaralarining davomi va uning suvereniteti ostida joylashgan Yer shari yuzasining bir qismi". Tarkibiga ko'ra, davlat hududi quruqlik, suv va havo zonalariga bo'linadi.

*Hududiy suvlar* qirg'oqbo'yi davlatlarining quruqlik yoki ichki suvlariga tutashgan zonalarini hisoblanadi.

*Davlat bayrog'i* davlat suverenitetining ramzidir.

*Davlat suvereniteti* bu davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining o'z hududidagi to'liqligi. "Suverenitet davlatning ajralmas xususiyatlaridan biridir". Ta'kidlash joiz-

ki, xalqaro normalarda mustasno holatlar ham mavjud [Громыко 1984, 437].

6. Xalqaro huquq voqeliklarining nomlari:

*Xalqaro tranzit* (lot. Transitas – o‘tish) xalqaro tranzit hududi orqali o‘tish. “Chet el fuqarolarining, shuningdek, chet el yuklari, bagajlari, transport vositalari, pochta jo‘natmalari, tranzit davlat hududidan o‘tish yo‘li uning chegaralaridan tashqarida boshlanadigan va tugaydigan to‘liq yo‘nalishning faqat bir qismidir” [Громыко 1984, 498].

*Demetalizatsiya* bu “ma‘lum bir hududning xalqaro huquqiy rejimi” bo‘lib, u tinchlik davrida harbiy maqsadlarda foydalanishni taqiqlaydi;

*Depozitariy* (lot. depositutu – depozitga qo‘yilgan narsa) “xalqaro ko‘p tomonlama shartnomaning va unga tegishli barcha hujjatlarning (bayonotlar, izohlar, hujjatlar) asl nusxalarini saqlaydigan bir yoki bir nechta davlatlar, xalqaro tashkilot yoki bunday tashkilotning bosh ma‘muriy xodimi”. Ratifikatsiya, qabul qilish, qo‘shilish, denonsatsiya to‘g‘risidagi hujjatlar va boshqalar qayd etilgan hujjat toifalaridandir.

*Rad etish* (fran. désavouer – rad etish, ma‘qullamaganlik) “xalqaro huquqda davlat yoki hukumat boshlig‘i tomonidan diplomatik vakilning o‘z vakolatlarini oshirib yuborishi munosabati bilan qilgan xatti-harakatlarini rad etish”.

7. Xalqaro tashkilotlarning nomlari:

*Birlashgan Millatlar Tashkiloti* (BMT) SSSR va Gitlarga qarshi koalitsiyaning boshqa yetakchi a‘zolari tashabbusi bilan suveren davlatlarning sa‘y-harakatlarini ixtiyoriy ravishda birlashtirish asosida tuzilgan xalqaro tashkilot.

*Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti* (NATO). Ushbu tashkilot jahondagi eng yirik harbiy-siyosiy ittifoq” [Громыко 1984, 123].

*Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti* (YXHT) xavfsizlik masalalari bilan shug‘ullanuvchi dunyodagi eng yirik mintaqaviy tashkilot. U Shimoliy Amerika, Yevropa va Markaziy Osiyoda joylashgan 56 ta davlatni birlashtiradi.

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan diplomatik terminlarni mavzuiy guruhlariga ajratish, har bir mavzuiy guruhning lingvistik tabiatini ochib berish *diplomatiya, kunsullik, tashqi aloqa* semalari asosida birlashuvchi terminlarning mohiyatini chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi. Soha terminlarining semantik tabiati, funksional xususiyatlarini aniqlash va baholashda mavzuiy

guruhlarga ajratib tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo o'zbek tilshunosligida qayd etilgan jihatlar bo'yicha aytish mumkinki, haligacha yetarlicha tadqiqot ishlari mavjud emas. Biz tadqiqotimiz mohiyatiga ko'ra diplomatik til birliklari, diplomatik terminlarning mazmun-mundariyasi, semantik maydoni, qo'llanish mohiyatini e'tiborga olgan holda o'zbek tili diplomatik terminlarining semantik tasnifini quyidagicha aks ettirishni joiz deb bildik:

### 1. **Diplomatik harakatlarni ifodalovchi terminlar.**

Diplomatik harakatlarni ifodalovchi terminlar tashqi siyosatda, tashqi ishlarda, diplomatik xizmatlar ko'rsatishda va konsullik ishlarida amal qiladigan birliklar bo'lib, ularda diplomatik harakatlarning muayyan mazmuni, mohiyati aks etadi. Bunday terminlarda asosan faoliyat, harakat semalari ustunlik qilib, diplomatik faoliyatlar yuklatilgan vakillar tomonidan davlat yoki shaxs manfaatlar uchun qilingan harakatlar namoyon bo'ladi va ko'p hollarda jarayon hamda unga bog'liq tushunchalar ifodalanadi. Diplomatik harakatlarni ifodalovchi terminlar sirasiga: *diplomatiya, diplomatik, bekor qilmoq, hadya qilmoq, inqiroz, noqonuniy, bosim, vakillik, holat, diplomatik til, strategik, muzokara, vakolatlar* kabilar kiradi.

Xususan, bunday terminlar sirasiga kiruvchi **diplomatiya** (grek. *diploma* – to'plamoq, yig'moq)" terminiga to'xtalsak: bu termin diplomatik faoliyatlarni tashkil etuvchi birlik sifatida namoyon bo'lib, davlatning tashqi siyosatida amalga oshiriladigan harakatlari majmuyi, muzokaralar olib borish, mamlakatlar, millatlar orasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yish, aloqalarni ta'minlashga qaratilgan harakatlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Diplomatiyaga oid manbalarda va lug'atlarda ushbu terminga quyidagicha izohlar keltirilgan: "Millatlar o'rtasidagi muzokaralar" [Shamsimuxamedov 2021, 55]. "Muzokaralar olib borish va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni saqlab qolish san'ati va amaliyoti, dushmanlikni qo'zg'atmasdan davlat ishlarini hal qilish mahorati". "Davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati, noharbiy tadbirlar majmuidir. Diplomatiyaning asosiy vazifasi va mazmuni – davlatlar tomonidan tashqi siyosiy maqsadlarga diplomatik usul va vositalar bilan erishish" [Shamsimuxamedov 2021, 55].

**2. Diplomatik qonunlar amaliyoti va hujjat yurituviga oid terminlar.** Bunday terminlarda, asosan, qonunlar amaliyoti bilan bog'liq faoliyatlar aks etib, ularda qonuniy harakatlar, maqsadlar, amaliy faoliyatlar namoyon bo'ladi. Diplomatiyaga oid

qonunlar, tashqi ishlar faoliyati, xalqaro aloqalar, tashqi siyosatda amal qiladigan qonunlar va ularga bog'liq holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni anglatuvchi tushunchalar aks etadi. Shu bilan bog'liq holda, hujjat yuritish faoliyati birliklari ham ushbu semantik maydonga kiruvchi terminlar mohiyatida namoyon bo'ladi. Jumladan; *diplomatik huquq, ilova, ishonchnoma, deklaratsiya, konvensiya, rioya qilmoq, protokol, qaror, bargon, buzilish, xalqaro huquq, diskriminatsiya (kamsitish), nota, shartnoma* singari diplomatiyaga xos birliklar shu guruhga mansub.

Ushbu guruhga kiritilgan **diplomatik huquq** tushunchasi mohiyatiga nazar solsak. Termin mohiyatida davlatning tashqi munosabatlarida rioya qilishi lozim bo'lgan me'yoriy tizimlari, xalqaro aloqalardagi majburiyatlari va burchlari belgilangan huquqiy-normativ jihatlar namoyon bo'ladi. **Diplomatik huquq** tushunchasiga manbalarda asosan quyidagicha ta'riflar keltirilganligini kuzatishimiz mumkin: "Tashqi aloqalardagi davlat organlari maqomi va vazifalariga tegishli xalqaro-huquqiy me'yorlar tizimidir (boshqacha qilib aytganda, davlatlararo munosabatlarni o'rnatish va amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi tartib)". "Diplomatik huquqqa diplomatik vakolatxonalar almashinuvi va ularning faoliyatlari natijasida paydo bo'ladigan davlatlararo aloqalarni tartibga soluvchi me'yorlar, bir davlatdan boshqa davlatga maxsus missiyalarning yuborilishi, davlatlar vakolatxonalarining xalqaro tashkilotlarda va xalqaro tashkilotlarning u yoki bu davlatlar hududlarida faoliyat ko'rsatishi, shuningdek, xalqaro tashkilotlar, ularning mansabdor xodimlari va xizmatchilarining immunitetlari va imtiyozlariga tegishli me'yorlarni hisobga olish kiradi" [Shamsimuxamedov 2021, 45].

**3. Diplomatik hamkorlik va diplomatik qo'shilishni ifodalovchi terminlar.** Ushbu guruhga kiritilgan leksik birliklar mohiyatida ma'lum bir manfaatlar kesimida hamkorlikni ifodalovchi tushunchalar ular bilan bog'liq ma'nolar, hamkorlikni aks ettiruvchi qonuniy asosga, qiymatga ega birliklar jamlanib, bunday hamkorlik davlat va xalq manfaatlari asosiga qurilib, diplomatik yo'l bilan xalqaro miqyosda amalga oshirilishi namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, ma'lum hamkorlik asosida xalqaro tashkilot, birlashma, tuzilma va uyushmalarga qo'shilish mazmuni bu toifaga kiruvchi terminlar semantik maydonida ko'zga tashlanadi. Ushbu guruhga: *kelishuv, hamkorlik, vositachilik, memorandum, sheriklik, qo'shilish, ittifoq, sulh, birlashtirish, pakt* kabi terminlarni kiritish mumkin.

Tasnifga kiritilgan **memorandum** (lot. *memorandum* – yod-

da tutish kerak bo'lgan narsa) terminiga e'tibor qarataylik: ushbu termin hujjatni ifodalab kelib, ushbu hujjat davlatning diplomatik hujjati hisoblanadi. Memorandumda masalaning huquqiy asoslari, faktlari yoritiladi. Shuningdek, memorandumda ma'lum bir masalada davlatning tutgan yo'li asoslanib, xalqaro miqyosdagi mohiyati bayon qilinib turli tahlillar keltirilishi mumkin.

**4. Diplomatiyada do'stlik va dushmanlikni ifodalovchi terminlar.** Har bir mamlakat jahon sahnida, xaritasida o'z o'rniga ega bo'lib borar ekan, u turli davlatlar bilan aloqa qilishga harakat qiladi. Bunda esa diplomatik faoliyat muhim rol o'ynaydi. Davlatlar o'z tashqi siyosatida dunyodagi barcha davlatlar bilan birdek munosabatda bo'la olmaydi. Mamlakatlar manfaatlari ham inson manfaatlarida bo'lganidek qaysidir nuqtada kesishsa, qaysidir jabhalarda qarama-qarshi oppozitsiyada bo'lib qolishi hech gap emas. Shu nuqtayi nazardan e'tibor qaratsak, xalqaro munosabatlar-da mamlakatlar qator jabhalarda do'stona aloqalar o'rnatsa, ayrim ziddiyatli masalalarda dushmanona kafiyyatda bo'lishi ham mumkin. Shu jihatdan diplomatik til birliklari orasida do'slikni ifodalovchi leksik birliklar va diplomatik faoliyatdagi kishilarning nutqida dushmanlik kafiyyatida qo'llanuvchi leksik birliklarni ajratish mumkin. Ularni birlashtirib yuqoridagi guruhda aks ettirish maqsadga muvofiq. Bunday terminlarga *ittifoqchi, dushman, xiyonat, ziddiyat, qarama-qarshilik, fitna, bo'ysunmaslik, do'stona bo'lmagan* kabi birliklarni kiritishimiz mumkin.

**5. Diplomatik kasbiy terminlar.** Jamiyatda mavjud soha, yo'nalish va kasblarning ma'lum atash nomlari, ularning ahamiyatiga qarab darajalari farqlanadi. Mamlakatlarda tashqi ishlarda, tashqi siyosatda faoliyat olib boruvchi diplomatlar orasida ham maxsus nomlanishlar, faoliyatiga qarab darajalanishlar shakllanib kelgan. Bular umumlashib diplomatik faoliyatni tashkil etadi. Diplomatiyada ham qadimdan maxsus terminlar shakllanib, ular ma'lum doiralarda qo'llanib kelingan. Hozirda ham diplomatiyada maxsus kasbiy terminlar diplomatik til birliklarining katta qismini tashkil etadi. Ularda xizmat faoliyatiga qarab sohadagi diplomatlar, elchilar va maslahatchilarning darajasi aks etadi. Shuningdek, faqatgina diplomatiyaga tegishli semantik maydonni ifodalovchi leksik birliklar ham ushbu qatorga kiradi. Diplomatik kasbiy terminlar sirasiga *maslahatchi, elchi, attashe, elchi muovini, favqulodda elchi, strateg, ekstraditsiya, diplomatik immunitet, diplomatik korpus, genotsid* singari terminlarni kiritishimiz mumkin.

**6. Diplomatik ishlar yuritiluvchi joy nomlari, uchrashuv,**

**tadbirlarni ifodalovchi terminlar.** DiplomatiK ishlar mamlakat tomonidan tashkil etilgan maxsus joylarda olib borilib ularda jismoniy, yuridik shaxslarga, turli tashkilot, birlashmalarga diplomatiK xizmatlar ko'rsatilishi bilan bir qatorda mamlakatning tashqi ishlari bilan bog'liq faoliyatlari ham olib boriladi. Jumladan, davlatning xalqaro aloqalar o'rnatish, turli hamkorlik faoliyatlarini tashkil etish, boshqa mamlakatlar bilan tashqi siyosatda belgilangan tartibda munosabat o'rnatishga qaratilgan harakatlar. Yuqoridagi keltirilgan faoliyatlar bilan bog'liq terminlarni diplomatiK ishlar yuritiluvchi joy nomlari bilan bog'liq birliklar sirasiga kiritishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, diplomatiK faoliyat jarayonida turli uchrashuvlar, tadbirlar tashkil etiladi. Bunday tadbir va uchrashuvlar, asosan, mamlakatlarning tashqi ishlar vazirliklari tomonidan uyushtirilib, unda mamlakatlar o'rtasidagi masalalarning ayrim tomonlari muhokama qilinishi, qarashlarning mos kelishi bilan bog'liq holda turli muammolar yechim topishi mumkin. Shuningdek, bunday tadbirlar bir necha mamlakatlar o'rtasida tashkilashtirilishi ham mumkin. Odatda, bunday uchrashuvlarda global yoki mintaqaviy masalalar qatnashchilarning e'tibor markazida bo'ladi. Davlatlararo diplomatiK korpus vakillari uchrashuvlarida ikki va undan ortiq mamlakatlar diplomatiK vakillari o'rtasida qatnashuvchi davlatlarga tegishli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy masalalar ko'rilishi mumkin. Zamonaviy diplomatiK uchrashuvlarda ikki va undan ortiq taraflarning biznes aloqalari ham muhokama qilinib, shu jarayonda davlatlarning biznes sinfiga kiruvchi vakillari tomonidan turli toifadagi shartnoma va bitimlar, kelishuvlarga erishiladi. Odatda bunday uchrashuv va tadbirlar natijasi o'laroq turli shartnomalar, kelishuvlar va bitimlar imzolanadi. Shu jarayonlarda qo'llanuvchi terminlar diplomatiK uchrashuv va tadbirlarni ifodalovchi birliklar hisoblanadi. Bunday terminlarga *agentlik, arbitraj, konsullik, elchixonona, bosh konsullik, liga, davlat tashriflari, konferensiya yoki kongress, sammit, blok, blokada* kabi birliklarni kiritish mumkin.

Keltirilgan guruhga kiruvchi **konsullik** terminining semantika tarkibiga e'tibor qaratsak. Konsullik bu ma'lum bir mamlakat tomonidan tayinlangan konsulning faoliyat olib boruvchi idorasi, konsullik vazifalarini bajarishga mo'ljallangan maxsus ish joyi. Konsullik idorasida konsullik xizmatlari olib boriladi. DiplomatiK terminlar tavsiflangan turli manbalarda konsullik termini quyidagicha izohlanadi: "Elchixonona tarkibiga kiradigan, bu yerda sayohat qilayotgan yoki istiqomat qilayotgan fuqarolarini qo'llab-quvvatlash

va himoya qilish maqsadida boshqa millatning muhim shahrida bir xalq tomonidan tashkil etilgan ofis. Bundan tashqari, bu idoralarga konsullik vakili bo'lgan mamlakatga borishni istagan mamlakat fuqarolariga viza berish (agar kerak bo'lsa) kabi boshqa muhim vazifalarni bajarish yuklatilgan. Poytaxtda yoki boshqa jamoalarda bo'ladigan barcha konsulliklar ma'muriy jihatdan elchi va elchixona tasarrufida" [<https://diplomacy.state.gov/discover-diplomacy/diplomatic-dictionary/>].

**7. Diplomatiyada tijoriy ish yurituvlariga oid atamalar.** Zamonaviy jamiyatda insonlar o'rtasida qator sohalarda turli darajalarda munosabatlar o'rnatilib kelinmoqda. Bu esa xalqaro aloqalarda ham o'z aksini topmoqda. Hozirda diplomatik aloqalarda ko'plab iqtisodiy, moliyaviy hamkorlik ishlari olib borilmoqda. Bu, o'z navbatida, tijoriy faoliyatning sezilarli darajada jonlanishiga, oldingi davrlarga qaraganda yuksakroq bo'lishiga olib kelmoqda. Qadimgi davrlarda ham savdo-sotiq ishlari mamlakatlar o'rtasida turli ko'rinishlarda amalga oshirilib kelingan va bunday munosabatlarda shu faoliyat mazmunini ifodalovchi leksik birliklar qo'llanib kelingan. XXI asrga kelib mamlakatlar o'rtasida tashqi aloqalarni o'rnatish dolzarflik kasb etdi. Tashqi faoliyatda, mamlakatdan tashqarida tijoriy ishlarni olib borish ma'lum mezonlarga tayanib amalga oshirilmoqda. Bunday faoliyat turlari xalqaro aloqalar orqali tartibga solinmoqda. Bugungi kunda mamlakat tashqarisidagi tijoriy faoliyatda diplomatik munosabatlar muhim rol o'ynamoqda. Xususan, mamlakat ichki bozorida tanqis bo'lgan mahsulotlarni import qilish yoki o'lkada mamlakat ehtiyojlaridan ortiqcha bo'lgan mahsulotlarni turli mamlakatlar bilan kelishuv asosida eksport qilish xalqaro munosabatlarda jahonning boshqa davlatlari bilan tijoriy hamkorliklar o'rnatishni talab qilmoqda. Shuningdek, eksport va import ishlari boshqa manfaatli shartlar asosida olib borilishi ham mumkin. Globallashuv davrida tranzit hududlardan foydalanish, tijoriy maqsadlarda boshqa bir mamlakat hududini savdo mollari bilan kesib o'tish, boj to'lovlari, turli vositalar orqali pul o'tkazish, savdo mollari xavfsizligi va boshqa qator masalalar diplomatik aloqalarda tashqi ishlar vazirligi tomonidan nazorat qilinib, ushbu jihatlar diplomatik korpus vakillarining tashqi aloqalardagi faoliyati bilan tartibga solinadi. Bu jarayonda ham sivilizatsiya va sohalar integratsiyasi natijasida yangi terminlar shakllandi. *Almashish, boykot, vositachi, mijoz, embargo, tijorat, pul o'tkazmasi, erkin savdo, tarif, talab, tashqi savdo, tranzit, xalqaro tranzit* kabi terminlar diplomatiyada tijoriy faoliyat turlari va ularga bog'liq faoliyatlarni

ifodalovchi birliklar sifatida aks ettirilishi mumkin.

Ushbu guruhga kiruvchi terminlardan **embargo** leksik birligining semantik doirasiga e'tibor qaratsak. Embargo tushunchasi zamonaviy tijoriy faoliyatda savdo to'sig'ini o'rnatgan hukumat buyrug'i ma'nosini anglatadi va olib qo'yish, monelik qilish ma'nolarida ham qo'llanadi. **Embargo** ("ispan tilidan *embargo* hibsga olish, taqiqlash, *embargar* – olib qo'yish, embargo; to'sqinlik qilmoq, xalaqit bermoq, lot. *imbarricare* – monelik qilish, xalaqit qilish") tushunchalarini ifodalaydi. Manbalarda ushbu terminning 2 xil ma'noda ishlatilishi qayd etiladi. 1. "Davlat tomonidan mamlakatga boshqa mamlakatlarning tilla va xorijiy valyuta, ma'lum turdagi mahsulotlar – qurol-aslaha, zamonaviy texnologiya va boshqalar olib kirishi va olib chiqib ketishiga taqiq qo'yish". 2. "Davlat hokimiyati tomonidan o'z mamlakati bandargohlariga boshqa mamlakatlarga tegishli kemalarning kirishini va o'z portlaridan boshqa mamlakatlarning kemalarining chiqishini taqiqlashi; BMT yoki boshqa davlatlararo birlashma qaroriga ko'ra biror mamlakatga nisbatan BMT Nizomini buzgani yoki boshqa noo'rin xatti-harakatlari uchun repressiv chora sifatida savdoni qisman yoki to'la to'xtatish" [Shamsimuxamedov I.U. 2021, 153].

Tashqi faoliyat bilan bog'liq bo'lgan **tashqi savdo** terminining mazmun ko'lamida tegishli davlatda ishlab chiqarilgan tovarlarni oldi-sotdi qoidalari bo'yicha boshqa mamlakatlarga eksport qilish (olib chiqish) va boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarni tegishli davlatga import qilish (olib kirish) ma'nolari mujassamlashgan.

Diplomatiyada tijoriy ish yurituvlariga oid terminlar sirasiga kiritilgan **tranzit, xalqaro tranzit** tushunchasini quyidagicha tavsiflashimiz mumkin: Xalqaro bojxona tranziti – bu chet el tovarlarining davlatning bojxona hududi orqali davlatning bojxona hududiga kirish joyi va ushbu hududdan chiqib ketadigan joyi o'rtasidagi bojxona nazorati ostida bojxona to'lovlari va soliqlarni to'lamasdan, shuningdek, tovarlarga taqiqlar va iqtisodiy cheklavlarsiz olib o'tiladigan bojxona rejimi.

**8. Diplomatiyada quruqlik va suvli hududlar, ularga bog'liq hodisalarni, obyektlarni ifodalovchi terminlar.** Dunyo geografik xaritasida mamlakatlarning joylashuvi turlicha bo'lib ularning pozitsiyalari har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ayrim mamlakatlar ikkita davlat bilan chegaradosh bo'lsa, ayrimlari 5 undan ko'p yurtlar bilan hududiy chegaraga ega. Hozirda ularning mintaqaviy joylashuvi, xalqaro miqyosdagi o'rnini baholashda

muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlatlar hududiy chegarasi uning boshqa mamlakatlar bilan munosabatiga resurslari va qazilma boyliklari bilan birdek ta'sir kuchiga ega bo'lmoqda. Yer sharidagi mamlakatlarning ayrimlari faqatgina quruqlikdan iborat bo'lsa, ayrimlari ulardan farqli o'laroq suvli manzillar bilan o'ralgan. Shundaylari ham borki, ham quruqlik, ham suvli zonalar bilan chegaradosh. Jahondagi ko'plab davlatlar esa ichki suvlarga yoki tashqi kesishma dengiz suvlariga ega. Davlatlarning joylashuvi tashqi siyosatda mamlakatning o'rnini ko'rsatishi mumkin ekanligini yuqorida qayd etdik. Haqiqatdan, diplomatik faoliyatda, tashqi siyosatda mamlakatning suvli yoki quruqlikda joylashgani ahamiyatli bo'lib, diplomatik faoliyat, xizmat ko'rsatish bu jihatga aloqador tarzda o'zgarib boradi va mamlakat diplomatiyasi joylashuviga qanchalik bog'liq bo'lsa, shunga qarab tashqi siyosatdagi darajasini belgilash mumkin. Davlatlarning bunday hududiy joylashuvi diplomatik nutqda shu jihatga bog'liq bo'lgan leksik birliklardan ko'proq foydalanishni talab qiladi. Ta'kidlash kerakki, suvli hududlarga ega davlatlar quruqlikdan tashkil topgan davlatlardan ko'ra yuqoriroq imtiyozlarga ega. Albatta, bu diplomatik faoliyatda ham aks etadi. Quruqlik bilan o'ralgan davlatlar o'z imkoniyatlarini oshirish yo'lida boshqa bir qo'shni davlat orqali suvli hududlarga chiqishga bu orqali uzoq mamlakatlar bilan hamkorlik qilishga intiladi. Bu esa mazkur davlat diplomatlari zimmasiga yanada yuqori mas'uliyatni yuklaydi. Chunki bunday toifadagi davlatlar tashqi siyosatida boshqa davlatlarga qaraganda ko'proq munosabatga kirishishlariga to'g'ri keladi. Bunda, albatta, suvli va quruqlikdagi aloqalarda qo'llanadigan terminlar mohiyatini yetarlicha tushunish muhim. Biz shu nuqtayi nazardan tasnifimiz doirasiga diplomatiyada quruqlik va suvli hududlar, ularga bog'liq hodisalarni, obyektlarni ifodalovchi terminlarni alohida mazmuniy guruh sifatida kiritishni joiz deb bildik. Bu jabhada qo'llanadigan terminlar sirasiga *dengizga chiqmagan, kanal, flagkema, oqim, dengiz vaqti, o'lchash, simob, ochiq dengiz, xalqaro dengiz huquqi* singari birliklarni kiritishimiz mumkin.

Tasnifga misol tariqasida kiritilgan **ochiq dengiz** terminiga diqqat qaratamiz. Bu termin dengiz hududida joylashgan erkin, ochiq suvli hududni anglatadi. Ushbu zona hech qaysi bir davlat tasarrufida bo'lmaydi va bu hududdan xalqaro huquqlarga muvofiq foydalanish mumkin. **Ochiq dengiz** terminiga lug'atlarda quyidagicha izoh berilganligini kuzatish mumkin. "Dunyo okeanining hududiy dengiz (yoki suv)dan tashqari bo'lgan suv qismi, shuningdek, biron bir davlatning yurisdiksiyasiga yoxud suverenitetiga tegishli

bo'lmagan, ularga tutash bo'lgan hudud. Ushbu hududdan foydalanish Xalqaro huquq normalariga asosan "ochiq dengiz erkinligi" prinsipi asosida amalga oshiriladi, ya'ni unga ko'ra hech bir davlat ushbu hududda va uning havo havzasida o'z suverenitetini kengaytirish yoki tatbiq etish yoxud boshqa bir davlatning ushbu hududdan foydalanishiga to'sqinlik qilish huquqiga ega emas. Ushbu prinsip 1958-yildagi Dengiz huquqi bo'yicha Jeneva konvensiyasi va BMTning Dengiz huquqi konvensiyasiga (1982-yil) muvofiq mustahkamlangan va amal qiladi". Shu o'rinda yuqoridagi terminga bog'liq ravishda va tasnif doirasida keltirilgan Xalqaro dengiz huquqi tushunchasiga to'xtalib o'tsak. "(Xalqaro dengiz ommaviy huquqi) – dengiz bo'shliqlari rejimini o'rnatadigan va davlatlar o'rtasidagi okeanlardan foydalanish bo'yicha munosabatlarni tartibga soladigan prinsiplar va huquqiy normalar to'plami" [Shamsimuxamedov 2021, 133].

**9. Inson xulq-atvori, qiyofasi, harakati va ularga bog'liq tushunchalarni ifodalovchi terminlar.** Har qanday davrda, holda, vaziyatda inson xulq atvori jamiyatda alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Shaxs tug'ilib, o'sib, voyaga yetar ekan uning tabiatida turli o'zgarishlar ro'y beradi. Oilaviy muhitga, ota-ona tarbiyasiga qarab kishining odob-axloqi shakllanadi. Bunda jamiyatning ham o'rni yuqori bo'ladi. Mustaqil hayotga qadam qo'ygan har bir shaxs o'zining xulq-atvori, kishilarga bo'lgan munosabati, odobi bilan yuksak pog'onalarni zabt etishi mumkin. Diplomatiik faoliyatda ham inson xulq-atvori, qiyofasi, harakati muhim hisoblanadi. Diplomatning har qanday harakati nafaqat o'zining, balki vakillik qilayotgan mamlakatning, diplomatik missiya vakillarining xohish, irodasini namoyon etishi mumkin. Shu sababdan ham diplomat diplomatik faoliyatda o'z xulq-atvoriga, odob-axloqiga alohida e'tibor qaratgan holda yondashishi va o'z harakatlarini odob-axloq doirasida olib borishi darkor. Hozirda diplomatiyada diplomatik etiket tushunchasi shakllanib, bu birlik o'z semantik qurshoviga diplomatik xulq-atvor, odob shakllari, etik qonuniyatlarni, estetik me'yorlarni qamrab oladi. Ta'kidlash joizki, davlatning tashqi siyosatida bu kabi xususiyatlar alohida ahamiyat kasb etibgina qolmay, tobora taraqqiy etib borayotgan dunyo mamlakatlari orasida o'z imijiga ega bo'lishida ham muhim jihat hisoblanadi. Biz shu kabi xususiyatlarni nazardan chetda qoldirmagan holda tasnif doirasida inson xulq-atvori, qiyofasi, harakatini ifodalovchi terminlarni alohida guruhda berishni maqsadga muvofiq deb bildik. Bunday terminlar sirasiga esa *xushmuomalalik, deportatsiya, xarizma, imo-ishora, odob, axloq, sardonik,*

*diplomatik etiket* kabi leksik birliklarni kiritishni joiz deb hisobladik. Xususan, ushbu guruh tarkibiga kiritilgan **diplomatik etiket** tushunchasiga diplomatiyaga oid lug'atlarda quyidagicha izohlar keltiriladi: "Protokolning muhim qismi sifatida rasmiy shaxslarning turli tadbirlar chog'ida, xususan, muzokaralar, delegatsiya uchrashuvlari, tashriflar, suhbatlar, qabul marosimlari vaqtida amal qiladigan odob qoidalarini aniq belgilaydi va tartibga soladi. Diplomatik etiket asosida mezbon davlatning urf-odatlarini, an'analari, qonunlari va o'rnatilgan tartib-qoidalariga jiddiy rioya qilish yotadi" [Shamsimuxamedov 2021, 53].

10. **Ramziy ifodalarni bildiruvchi terminlar.** Turli davrlarda o'z sohasi uchun tushunarli bo'lgan, jamiyatning boshqa vakillari uchun ma'no anglatmaydigan yoki butunlay boshqa tushunchani ifodalaydigan leksik birliklar qo'llanib kelingan. Bugungi sivilizatsiya davrida bunday ramziy ifodalarni deyarli jamiyatning barcha sohalarida uchratish mumkin. Xususan, diplomatik faoliyatda ham ma'lum bir tushunchalarni bildiruvchi ramziy ifodalar mavjud. Bunday birliklar turli doiralarda bo'lishi mumkin. Jumladan, butun dunyo diplomatik korpus vakillariga tushunarli bo'lgan birliklar yoki faqatgina bir davlat tashqi xizmat vakillari uchun tushuncha ifodalovchi birliklar. Shuningdek, ma'lum diplomatik missiya, diplomatik guruh yoki vakillari uchun tushunarli bo'lgan ramziy terminlar. Qayd etish joizki, bunday ramziy ifodalar avvallari diplomatik faoliyatda ro'y bergan voqea-hodisa bilan bog'liq bo'lishi yoki shu sohada boshqa ma'noni ifodalab kelgan leksik birliklar bilan qo'llanishi, shuningdek, butunlay boshqa bir hamma uchun tushunarli ifoda ramziy ma'noda foydalanilishi mumkin. Bunday leksik birliklar sirasiga *cho'loq o'rdak, lab xizmati, maysazor urushi, kabel, saralanganlar, aqlli quvvat, yashirin, chalkashlik, chet el agenti, josus* kabilarni kiritish mumkin.

11. **Diplomatiyada norozilikni ifodalovchi terminlar.** *Norozilik*, bu so'zni eshitganimizda yoki qulog'imizga chalinganda hozirgi kun nuqtayi nazaridan qaraganimizda ma'lum bir voqea-hodisaga, jarayonga xayrixoh bo'lmagan shaxslar xatti-harakat, holat tushuniladi. Aslida, har qaysi davrda bunday jihatlar ko'zga tashlanadi. Ammo bugungi kunda bu leksik birlikka deyarli har onda duch kelyapmiz. Tashqi siyosatda, tashqi ishlarda, diplomatik faoliyatda norozilik tushunchasi bir necha ma'noda talqin qilinishi mumkin. Jumladan, ma'lum bir mamlakatning qaysidir sohadagi siyosatiga, faoliyatiga norozilik bildirish yoki davlatning umumiy siyosiy faoliyatidan, tashqi ishlardagi faoliyatidan norozilik va bosh-

qa. Shuningdek, norozilik shaxslar, ma'lum bir guruhlar yoki davlatlar tomonidan bo'lishi mumkin. Ko'pincha diplomatiyada norozilik ifodasi shaxslarda kuzatiladi. Ular ma'lum bir xizmat ko'rsatish jarayonlaridan qoniqmasligini turli ko'rinishlarda ifodalashi mumkin. Globallashuv jarayonida insonlar manfaatlari to'g'ri kelmagan hollarda ham norozilik vujudga kelishi, demokratik jamiyatda nodemokratik faoliyatlarning yuzaga chiqishi, oddiy xalqqa nisbatan turli bosimlarning o'tkazilishi noroziliklarga olib keladi. Bu jihatlar diplomatiyada alohida tushunchalar, terminlar bilan izohlanadi va mohiyati ifodalanadi. Norozilik ifodalari turli mazmunda, toifada, doirada bo'lganligi sabab ular turlicha terminlar bilan ifodalanadi. Bunday terminlar ma'lum shaxsga, guruhga yoki jamiyatga nisbatan qo'llanishi mumkin. Ushbu guruh leksik birliklariga *norozilik notasi, qoralash, tortishuv, dissident, ta'limot, haqorat, qo'zg'olon, undamoq, shoshilinchlik, haqiqat, buzmoq* kabi terminlarni kiritishimiz mumkin.

**12. Diplomatik operatsiyalarni ifodalovchi terminlar.** Diplomatik faoliyatda hukumat yoki vazirlik topshirig'i bilan ma'lum bir operatsiya va tadbirlar o'tkazilib turiladi. Bunday operatsiyalar mamlakatning yoki shu davlatga tegishli fuqarolarning manfaatini ko'zlab amalga oshiriladi. Bu kabi operatsiyalarga *sinchkov, hushyor, e'tiborli, ehtiyotkor, tajribali, mohir diplomatlar* yoki davlat xizmatidagi shaxslar jalb etiladi. Chunki bu jarayonda ma'lum bir muhim vazifa to'liq ado etilishi lozim. Diplomatiyada diplomatik operatsiya va unga bog'liq jarayonlarni ifodalovchi leksik birliklar mavjud. Bunday birliklar sirasida *missiya, skringing, nazorat, to'siq, manuver, operatsiya, taktika, josuslik, razvedka* kabi terminlarni qayd qilish mumkin.

**13. Diplomatiyada shaxs(lar)ni ifodalovchi terminlar.** Diplomatik faoliyat bilan bog'liq holda diplomatik ahamiyatga molik bo'lgan shaxslar ma'lum terminlar bilan nomlanib, sohada shu termin orqali shaxs va unga tegishli bo'lgan jihatlar ifodalanaadi. Ya'ni diplomatiyada kishilar va ularga bog'liq holda yuzaga keluvchi voqeliklar ma'lum bir leksik ifodalar bilan nomlanib, bunday ifodalar ham voqelikni, ham shaxsni tushunishga qaratiladi. Diplomatiyada shaxs(lar)ni ifodalovchi terminlar diplomatiya sohasida faoliyat olib boruvchilarga tegishli bo'lishi yoki diplomatik harakatlarni bartaraf etiluvchi voqelikni ifodalovchi hodisalar va unda ishtirok etuvchi shaxslarga aloqador bo'lishi mumkin. Bunday terminlarga *diplomat, agent, delegatsiya, persona non grata, vakolatli diplomat, vakil, terrorchi, konsul, qochoq, immigrant, status, fuqarolik*

kabilarni kiritish mumkin.

Xususan, ushbu guruhga kiritilgan **diplomat** terminining semantik mohiyatiga e'tibor qarataylik: Bu termin odatda xalqaro muzokaralar olib borayotgan amaldorga nisbatan qo'llanadi. Diplomatiyaga oid manbalarda *diplomat* (fran. diplomate) terminining quyidagicha izohini uchratish mumkin:

1. "Chet mamlakatlar bilan rasmiy aloqa qilish yoki muzokara olib borish uchun hukumat tomonidan vakil qilib tayinlangan mansabdor shaxs. Odatda tashqi aloqalar idorasi (markaziy yoki xorijiy apparat) xodimi egallab turgan lavozimiga ko'ra u o'sha idoraning vazifalarini xorijiy davlatlar bilan rasmiy munosabatlarda doirasida amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalarni bajarishda bevosita ishtirok etadi. Keng ma'noda diplomat – u yoki bu tashqi siyosiy masalalarni doimiy yoki vaqtinchalik asosda bajarish vazifasi rasmiy ravishda yuklangan shaxs".

2. "Muomalaga usta, muzokara olib borish san'atini yaxshi biladigan inson".

Tasnif doirasida keltirilgan *konsul* (lot. consul) terminining semantik maydoniga nazar solsak, ushbu termin birinchi kotib darajasidagi elchixonaga konsullik xodimini ifodalaydi. Shuningdek, "Boshqa davlatning biror shahri yoki hududida ikki mamlakat o'rtasida o'rnatilgan konsullik munosabatlari doirasidagi vazifalarni bajarish uchun doimiy vakil sifatida tayinlanadigan mansabdor shaxs". "Boshqacha ta'riflaganda, konsul – o'zaro kelishuv asosida bir davlatdan ikkinchi davlatning muayyan bir okrugiga yuborilgan mansabdor shaxs bo'lib, u o'z okrugi doirasida o'z davlati va uning yuridik shaxslari, fuqarolari manfaatlarini himoya qilish, ikki davlat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy va boshqa sohalarida aloqalarni rivojlantirishga ko'maklashish, ushbu okrugda mavjud iqtisodiy holat va yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni kuzatish va o'z davlatini xabardor qilish kabi vazifalarni bajaradi [Shamsimuxamedov 2021, 76].

**14. Diplomatiyada aloqalarni tartibga solish va tashqi siyosatda qo'llanuvchi terminlar.** Mamlakatning tashqi ishlar vazirligi davlatning xalqaro maydondagi aloqalarini tartibga solish, tashqi ishlarni tashkil etish va ularni amalga oshirish, tashqi siyosatni olib borish, davlat rahbari topshirig'i va rahnamoligi bilan boshqa mamlakatlar bilan turli darajadagi munosabatlarni o'rnatish, hamkorlik ishlarini olib borish va turli global, mintaqaviy, mahalliy masalalarda muzokaralar olib borish vakolatiga ega tuzilma hisoblanadi. Shuningdek, davlat tashqarisida turli darajadagi

xizmatlar ko'rsatish ham ushbu tuzilma zimmasida. Bu jarayonlarda diplomatlar, konsullar, vakillar ishtirok etadi. Ularning nutqida diplomatiyada aloqalarni tartibga solish va tashqi siyosat bilan bog'liq leksik birliklar faol qo'llanadi. Bunday terminlarga *tashqi ishlar, tashqi yordam, tashqi siyosat, tashabbus, izolyatsiya qilingan, yolg'onchi davlat, sanksiya, deportatsiya, trek, o'tkazish, hushyor, yetakchilik, viza* kabilarni kiritishimiz mumkin.

**15. Diplomatiyada davlat tuzumlari va unga bog'liq harakatlarni ifodalovchi terminlar.** Dunyo mamlakatlarining har biri o'z boshqaruv tizimiga ega bo'lib, davlatning boshqaruv siyosati shu tuzum mezonlariga asosan boshqariladi. Bu tashqi siyosatda ham o'z aksini topadi. Shu o'rinda qayd etish joizki, demokratiyalashuv jarayonlarida davlatlarning tashqi siyosatdagi daxlsizligi saqlanadi. Diplomatik tilda davlat boshqaruv shakllari va unga bog'liq tushunchalar bir necha leksik birliklar bilan ifodalanadi. Dunyo diplomatiyasida har qanday boshqaruv shakllari va unga bog'liq xususiyatlarini ifodalovchi terminlar mavjud bo'lib, ularda boshqaruv shakli, davlat va hokimiyatning xatti-harakatlari, xalqaro miqyosidagi o'rni ifodalanadi. Bunday terminlar sirasiga avtoritar tuzum, avtonom, suverenitet, muvofiqlik, zabt etmoq, tartib, jilovlash, ultimatum, bosqinchilik, kolonizatsiya, imperializm, protektorat, Respublika kabi leksik birliklarni kiritish mumkin. Xususan, guruhga kiritilgan avtoritar tuzum (lot. autoritas – hokimiyat, obro', nufuz va e'tibor; ta'sir etish) termini semantik jihatlariga e'tibor qaratsak: "Davlat rejimining nodemokratik turlaridan biri bo'lib, bunda hokimiyat yakka shaxsning yoki bir guruh shaxslarning qo'lida to'plangan bo'ladi. Avtoritar tuzumda, odatda, shaxsiy diktatura elementlari mavjud bo'ladi. Bunday tuzumda haqiqiy hokimiyat tor doira qo'lida bo'lib, shaxsiy manfaatlar davlat manfaatlari yo'lida qurbon qilinadi. Avtoritar tuzumda vakillik organlari ham mavjud bo'ladi, referendumlar, xalq muhokamalari va h.k. o'tkazilishi mumkin. Avtoritar tuzumning mohiyati, qo'llaniladigan uslublaridan biri – jamiyatga muayyan mafkurani majburan qabul qildirish".

**16. Diplomatiyada hududiy chegaralarni ifodalovchi terminlar.** Diplomatik harakatlarni amalga oshirishda mamlakatlarning geografik joylashuvi, hududiy chegaralarini, erkin va davlatlar nazoratida bo'lgan hududlarni yetarlicha anglab ish ko'rish eng asosiy mezonlardandir. Tashqi ishlarni amalga oshirishda mamlakatning dunyoning qaysi mamlakatlarida, mingtaqalarida, o'lkalarida yetarlicha aloqalari mavjudligi ham katta ahamiyatga ega. Davlatning xalqaro aloqalari qanchalik yuqori bo'lsa, uning imkoniyatlari shun-

chalik kengayib boradi. Diplomatik ish yurituvida boshqa mamlakatlarning hududiy daxlsizligini inobatga olish muhim. Shuningdek, davlatning mamlakatdan tashqari hududlardagi harakatlari o'sha hudud nazoratini amalga oshiruvchi mamlakatlar bilan muzokaralar amalga oshirish orqali olib boriladi. Xalqaro huquq me'yorlariga asosan davlat yer sharidagi erkin zonalardan, ochiq dengiz hududlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Diplomatiyada hududiy chegaralarni ifodalovchi birliklarni bilish, diplomatik xatolarga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi. Bunday tushunchalarni ifodalovchi terminlar sirasiga: *chegara, ichki hudud, yaxlitlik, kartografiya, hudud, geosiyosat, ta'sir doirasi, hududdan tashqari hududiylik, davlat chegaralari, xalqaro zona* kabi terminlar kiradi. Jumladan, tasnif doirasida keltirilgan geosiyosat termini mohiyatiga e'tibor qaratsak. Geosiyosat bu mamlakatning tashqi siyosatida davlatning joylashuvi, demografiyasi va boshqa shu toifaga kiruvchi jihatlarning ta'siri hisoblanib, bu o'tgan asr boshlarida paydo bo'lgan nazariyadir. Unga ko'ra, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, davlatlarning ravnaqi faqat geografik sharoit bilan belgilanadi. Ushbu qatorda keltirilgan, tasnif mohiyatini ifodalovchi terminlardan biri bo'lgan davlat chegaralari tushunchasi mohiyatiga nazar solsak. Bu termin "davlatlarning quruqlik va suvdagi hudud doirasini belgilaydigan chiziq. Bu chiziq ustidan o'tadigan vertikal sath shu davlatning havo chegarasi hisoblanadi. Davlat chegaralari bir davlat hududini ikkinchi davlat hududidan, shuningdek, ochiq dengizdan ajratib turadi".

### **Xulosa**

Yuqoridagi tasnifdan va uning tarkibiga kiritilgan terminlar mohiyatidan kelib chiqib, quyidagilarni alohida ta'kid-lamoqchimiz: diplomatik terminlarning mazmunini anglash, ularning semantik maydonini yetarlicha baholay olish, diplomatik faoliyat jarayonida ulardan o'z o'rnida foydalanish diplomatik ishlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jahon diplomatiyasi til birliklaridan kelib chiqib o'zbek diplomatik terminlarining izohli lug'atlarini shakllantirish, ulardan foydalangan holda semantik tasniflarini takomillashtirilgan tartibda ishlab chiqishimiz diplomatiyada qo'llanuvchi har bir terminning semantik doirasini aniq belgilashga, mazmun ko'lamini yetarlicha anglashga zamin yaratadi va diplomatlarning samarali ish faoliyatida muhim rol o'ynaydi.

Diplomatiya tili, uning terminologiyasi va semantik tasniflarining takomillashuvi xalqaro munosabatlarda diplomatiya tilidan

foydalanish imkoniyatlarini oshirish bilan birga, diplomatik tilning lingvistik, semantik, terminologik jihatlarini har tomonlama ochishga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar

- Громыко А.А. и др. 1984. *Дипломатический словарь*. В 3-х т. 4-изд. Москва: Наука.
- Shamsimuxamedov I.U. 2021. *Diplomatik terminlar izohli lug'ati*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2006. 1 жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- Madrahimov Z.Sh., Kenjayev E.H., Norqo'ziyev D.R. 2019. *Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi*. O'quv qo'llanma. Namangan.
- <https://www.vocabulary.com/lists/183677>
- <https://diplomacy.state.gov/discover-diplomacy/diplomatic-dictionary/>

## Semantic Classification of Uzbek Diplomatic Terms

Sanjar Mavlyanov<sup>1</sup>

### Abstract

In this article, the semantic classifications of the diplomatic terms of the Uzbek language are highlighted in order to further supplement and improve the results achieved in Uzbek linguistics. Understanding the meaning of diplomatic terms, being able to adequately assess their semantic field, and using them in their proper place in the process of diplomatic activity are of great importance in the successful implementation of diplomatic work. Also, the formation of explanatory dictionaries of Uzbek diplomatic terms based on the linguistic units of world diplomacy, and the development of semantic classifications using them in an improved order will create a basis for the precise definition of the semantic scope of each term used in diplomacy, a sufficient understanding of the scope of content, and for diplomats to It is analyzed that it plays an important role in effective work. This article covers 16 types of semantic classifications of Uzbek diplomatic terms depending on their content.

**Key words:** *diplomatic term, lexeme, semantic classification, lan-*

---

<sup>1</sup> Sanjar D. Mavlyanov – doctor of philosophy in philological sciences (PhD), Alisher Navoi Tashkent state University of Uzbek Language and Literature.

**E-mail:** movlanovsanjar13@gmail.com

**ORCID ID :** 0000-0002-4705-7165

**For citation:** Mavlyanov, S.Dj. 2023. "Semantic classification of Uzbek diplomatic terms". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 83 – 101.

### **References**

- Gromыko A.A. i dr. 1984. *Diplomaticheskii slovar*. V 3-x t. 4-izd. Moskva: Nauka.
- Shamsimuxamedov I.U. 2021. *Diplomatik terminlar izohli lug'ati*. Toshkent: Donishmand ziyosi.
- O'zbek tilining izohli lug'ati*. 2006. 1 jild. A.Madvaliev tahriri ostida. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- Madrahimov Z.Sh., Kenjayev E.H., Norqo'ziyev D.R. 2019. *Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi*. O'quv qo'llanma. Namangan.
- <https://www.vocabulary.com/lists/183677>
- <https://diplomacy.state.gov/discover-diplomacy/diplomatic-dictionary/>

## MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

### I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

### II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

### III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda “tarjima muallifniki”

shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

#### **IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi**

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida ( ) satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

#### **V. Havola va izohlar berish**

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [ ] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

#### **VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi**

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

#### **VII. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi**

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

#### **VIII.1. Kitoblar uchun**

##### **Bibliografiyada:**

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

##### **Matnda kitobga havola:**

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

**Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

**Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi.** Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

**Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

**Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

**Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:**

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

**Elektron kitobni bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

**Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mamatov 2018, 11]

**Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

**Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

**VIII.2. Jurnal maqolasi uchun**

**Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8. Toshkent.

**Matnda jurnal maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

**Elektron jurnal uchun:**

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

**Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

### **VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun**

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

#### **Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

#### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

#### **Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

#### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

#### **Adabiyotlar**

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

#### **Adabiyotlar**

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “The Chicago Manual of Style, 16th Edition” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

## GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: language and culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

### 1. General

#### - Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s).

### 2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of *The Chicago Manual of Style*, 16<sup>th</sup> Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: *Title of the Book*. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified “down” style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

### **3. Style and Usage**

#### **1) Translation**

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, “Author’s own” translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([ ]).

#### **2) Names and Terms**

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

### **4. Quotation**

#### **1) Block Quotations:**

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

### **5. Others**

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([ ]).

## 6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

### BOOK

#### Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

#### In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

#### Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

#### In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

#### Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

#### In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

#### Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of *University of Chicago Readings in Western Civilization*, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

#### In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

### BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a

chapter or other number.

**Reference List (hanging indent):**

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

**In Text Cite:**

[Austen 2007, 101]

**Reference List (hanging indent):**

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

**In Text Cite:**

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

## JOURNAL ARTICLE

### Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

**Reference List (hanging indent):**

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

**In text cite:**

[Weinstein 2009, 440]

### Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

**Reference List (hanging indent):**

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

**In text cite:**

[Kossinets and Watts 2009, 411]

### Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

**Reference List (hanging indent):**

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

**In text cite:**

[Mendelsohn 2010, 68]

**Reference List (hanging indent):**

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

**In text cite:**

[Stolberg and Pear 2010, 12]

**WEBSITE**

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

**Bibliography (hanging indent):**

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

**In text cite:**

[Google 2009]

**Reference List (hanging indent):**

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

**In text cite:**

[McDonald's 2008]

## IZOHLAR

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan 0936-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

**Manzil:** Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos  
Hojib ko'chasi 103-uy.  
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.  
Website: [www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)  
E-mail: [uzlangcult@gmail.com](mailto:uzlangcult@gmail.com)

Bosishga 30.12.2023-yilda ruxsat etildi.  
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.  
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida tayyorlandi va sahifalandi.  
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.  
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,  
58-a harbiy shaharcha.